

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 2. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 2(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ***Файзуллаева Мавлюда Хамзаевна*ЎЗБЕК ВА ТОЖИК АНЪАНАВИЙ ТАОМЛАРИДА ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ АКС
ЭТИШИ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА) 10-15*Umarov Sardor Yakubovich*QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYADA MEHNAT BOZORINI ISLOH QILISH, AHOLI BANDLIGI,
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR 16-20**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ***Shadiyeva Gulnora Mardiyevna*O'ZBEKISTONDA EKSPORTNING OSHISHINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETISH
YO'LLARI..... 21-29*Халилдинов Азизбек Абдуқоххорович*КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ
БОШҚАРИШГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР 30-34*Мавлянов Мажид, Урдушев Хамракул*

КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ: ЧОРВАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ 35-45

*Асроров Азизбек Исомиддин угли*ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА РИСКОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 46-52*Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi, Achilboyeva Sevinch O'tkir qizi*

МАНАЛЛИЙ BUDJET DAROMADLARI HISOBİ TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHATLARI. 53-60

*Камалов Акмал Сайдакбарович*ХАЛҚАРО ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ЭҲТИМОЛЛИГИНИНГ
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ
УСЛУБИЯТИ ИШЛАБ ЧИҚИШ 61-68*Namazov Gafur Shokulovich*

IQTISODIYOTDA GIBRID MODELLARNI QO'LLASH 69-75

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*

YANGI O'ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIZIMLI O'ZGARISHI 76-81

Kadirova Ziyoda Rahimdjanoyna

ISLOM FALSAFASIDA ILM TUSHUNCHASINING MOHIYATI..... 82-86

Turdiyev Bexruz Sobirovich

JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI..... 87-92

Alimatova Nargis Abduxalilovna

KONSTITUTSIYADA HALOL RAQOBAT KAFOLATI 93-98

Abdullayev Ibodulla Abdullayevich, Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi

MA'NAVIYAT – YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM POYDEVORIDIR..... 99-103

<i>Кувандиков Шокир Облокулович</i> МАҲМУДХҲҲА БЕҲБУДИЙ МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФИЙ МАНБАЛАРИ	104-111
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR MAFKURAVIY ONGI TRANSFORMATSIYALASHUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR	112-119
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> BADIIY MUHITDA TANQIDIYLIK VA SATIRANING TABIIY KOMMUNIKATSIYASI	120-125
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Saitova Nilufar Djumaydillayevna</i> YOSH O'ZBEK SHOIRLARI: VOQELIKNI IDROK ETISH VA UNI BADIIY IFODALASH TENDENSIYALARI	126-130
<i>Nurmanov Furqat Hayitqulovich</i> O'G'UZ" ETNONIMI VA O'G'UZLAR	131-137
<i>Qudratova Sitora Olimovna</i> AQSH HIKOYACHILIGI TARIXI VA SPETSIFIKASINING BADIIY IFODASI HAMDA JANR IJODKORLARI.....	138-148
<i>Fayziyeva Aziza Anvarovna, Safarova Nigora Axatovna</i> METAFORALARNING O'ZBEKCHA TARJIMASIGA KOGNITIV YONDASHUV	149-153
<i>Qodirova Madinabonu Murodjon qizi</i> LINGVISTIK TA'MINOT VOSITALARI: TUZILISHI VA TARKIBI	154-159
<i>Аллабердиева Регина, Мадалов Навруз</i> ТАКСОНОМИЯ ГЕНДЕРНО-МАРКИРОВАННЫХ ПАРЕМИЙ - РЕГУЛЯТИВОВ АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ	160-165
<i>Azimova Aziza Alisher qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI	166-172
<i>Shoymardonov Ilhom Alixonovich</i> BAHOR, YOZ, KUZ MAVSUMLARI BILAN BOG'LIQ BOLALAR QO'SHIQLARI	173-178
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI....	179-184
<i>Mirzayev Jasur, Madalov Navruz</i> THE DIALOGIC NATURE OF PERSONIFICATION IN THE POETICS OF WILLIAM BLAKE.....	185-190
<i>Yuan Xiaowei</i> ON THE TITLE AND LEXICAL FEATURES OF THE WINTER OLYMPICS NEWS REPORT IN CHINA DAILY	191-197
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ражабов Нариман Шарифбаевич</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОБРОВОЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	198-206
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLIK	

HUQUQI OBYEKTLARIDAN FOYDALANUVCHI SHAXSLAR O'RTASIDAGI SHARTNOMALAR TASNIFI	207-212
<i>Inoyatov Behruzjon Umidjon o'g'li</i> TOVAR BELGILARINING HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	213-220
<i>Раимова Шохсанам Ғайратжонова</i> РЕЦИДИВ ЖИНОЯТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ	221-227
<i>Mukumov Bobur</i> CURRENT ISSUES OF IMPROVING THE PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY AT THE INTERNATIONAL LEVEL	228-234
<i>Нодирахон Абдурахманова</i> ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН, СМАРТ-КОНТРАКТОВ И КРИПТОВАЛЮТ НА РАЗВИТИЕ ПРАВА	235-239
<i>Акмалхонов Боситхон Азизхон ўғли</i> ЗАЩИТА ПРАВА ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ПРАКТИКЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА	240-246
<i>Turakulova Nazira</i> MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOVIIY BOSHQARISH	247-260
<i>Якубов Бекзод Эркинбаевич</i> КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ҲОЛЛАРДА ТЕЗКОР – ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ	261-265
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Mamajonov Xoshimjon Abdumalikovich</i> FIZIKA FANINI IJODIY O'ZLASHTIRISH YO'LLARI (AKADEMIK LITSEYLAR MISOLIDA)	266-271
<i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURTLARIDA ISPAN TILI BO'YICHA IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI O'QITISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH	272-281
<i>Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</i> TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI	282-287
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i> KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	288-291
<i>Omonqulov Ulug'bek Maxsiddin o'g'li</i> IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI	292-296
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM	297-304
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> TASVIRIY SAN'ATNING O'QUVCHILAR IDROKI VA IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	305-310

Yusupova Feruza Hajiboyevna, Gaipova Nilufar Jasurbekovna

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK TA'LIM BERISHDA GRAFIK

ORGANAYZERLARNING ROLI 311-317

Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna

SOMONIYLAR DAVRI SAN'ATI VA UNING JAHON TARIXIDAGI ROLI..... 318-322

Nurmanov Furqat Xayitqulovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti
Email: furqatnx@gmail.com

O'G'UZ" ETNONIMI VA O'G'UZLAR

Annotatsiya. O'g'uzlar turkiy xalqlarning tarixiy, tadrijiy taraqqiyyotida muhim rol o'ynagan. Ular turkiy xalqlar tarkibida ham salmoqli nufuzga ega. Tarixiy afsonaviy manbalarga ko'ra turkiy xalqlar o'g'uzlardan tarqalgan degan da'vo mavjud. "O'g'uzhoqon", "O'g'uzxon" kabi nomlar bilan ataluvchi manbada shunday fikrlar keltirilgan hamda bu fikr ko'plab tarixiy asarlarda, jumladan, Abulg'oziy Bahodurxon va Mirzo Ulug'bekning asarlarida takrorlanadi. Bundan tashqari, o'g'uzlar, ularning tarixiy faoliyati, etnonimning kelib chiqishi, tili va madaniyati haqida juda ko'plab manbalardan ma'lumot olish mumkin. Ushbu kichik tadqiqotimizda o'zbek xalqi va tilida asosiy ahamiyat kasb etuvchi o'g'uzlar va ularning tili (dialekti) haqida kuzatishlarimizni bayon qilamiz. Ularning tarix sahniga chiqishi, qabilalar ittifoqini yaratishi, davlatchiligi, ilk yozma yorgorliklardagi o'g'uzlar, M.Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarida o'g'uzlarga munosabati, tarixiy va ilmiy manbalarda o'g'uzlar faoliyatining yoritilishi, etnonimning tarixiy va lisoniy asoslari haqida tahlillarimizni beramiz. Dastlab, o'g'uz atamasining kelib chiqishi hamda turkiylarning katta oilasida o'g'uzlarning tutgan tarixiy o'rni va ahamiyati haqida fikrlarimizni bayon qilamiz.

Kalit so'zlar: o'g'uzlar, O'g'uzxon, Qurqut Ota kitobi, turkiy madaniyat, etnonim, etnotoponim, Devonu lug'ati-t-turk, o'q, o'gur, to'qqiz o'g'uz, etnogonez, urug', qabila.

Nurmanov Furkat Khaitkulovich
Doctoral student of Samarkand State University
named after Sharof Rashidov

"OGUZ" ETHNONAME AND OGUZ

Abstract. The Oguzes played an important role in the historical and progressive development of the Turkic peoples. They have significant influence among the Turkic peoples. According to historical and legendary sources, there is a statement that the Turkic peoples descended from the Oguzes. Similar ideas are presented in sources called "Oguzhakon" and "Oguzkhan", and this idea is repeated in many historical works, including the works of Abulgazi Bahadurkhan and Mirzo Ulugbek. In addition, information about the Oguzes, their historical activities, the origin of the ethnonym, language and culture can be obtained from many sources. In this small study we will describe our observations about the Oguzes and their language (dialect), which are of great importance for the Uzbek people and language. We will give our analysis of their appearance in the historical arena, the creation of a union of tribes, their statehood, the Oguzes in the first written sources, the treatment of the Oguzes in the work of M. Koshgari "Devonu Lugati-t-Turk", coverage of the activities of the Oguzes in historical and scientific sources, historical -linguistic foundations of the ethnonym. First, we will present our thoughts on the origin of the term "Oghuz", as well as the historical place and significance of the Oghuz in the large family of Turks.

Key words: Oguz, Oguzkhan, book of Kurkut Ota, Turkic culture, ethnonym, ethnotoponym, Devon-t-Turk dictionary, arrow, thief, nine Oguzes, ethnogenesis, clan, tribe.

Нурманов Фуркат Хаиткулович
Докторант Самаркандского государственного университета
имени Шарофа Рашидова

«ОГУЗ» ЭТНОНАЗВАНИЕ И ОГУЗ

Аннотация. Огузы сыграли важную роль в историческом и прогрессивном развитии тюркских народов. Они имеют значительное влияние среди тюркских народов. Согласно историко-легендарным источникам, существует утверждение, что тюркские народы произошли от огузов. Подобные идеи представлены в источниках под названием «Огужакон» и «Огузхан», и эта идея повторяется во многих исторических трудах, в том числе в трудах Абулгази Бахадурхана и Мирзо Улугбека. Кроме того, сведения об огузах, их исторической деятельности, происхождении этнонима, языка и культуры можно получить из многих источников. В этом небольшом исследовании мы опишем наши наблюдения об огузах и их языке (диалекте), которые имеют большое значение для узбекского народа и языка. Мы дадим свой анализ их появления на исторической арене, создания союза племен, их государственности, огузов в первых письменных источниках, обращения с огузами в работе М.Кошгари «Девону лугати-т-тюрк», освещение деятельности огузов в исторических и научных источниках, историко-лингвистические основы этнонима. Сначала мы изложим наши мысли о происхождении термина «огузы», а также об историческом месте и значении огузов в большой семье тюрков.

Ключевые слова: Огуз, Огузхан, книга Куркут Ота, тюркская культура, этноним, этнотопоним, словарь Девону-т-тюрк, стрела, вор, девять огузов, этногенез, род, племя.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I2Y2024N19>

Kirish. Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" kitobida O'g'uzxon tug'ilganidan so'ng uch kun ona sutini ichmagani, onasini musulmonlikka da'vat etgani, islomni qabul etganidan keyin emib boshlagani, odatga ko'ra bir yoshida ism qo'yilishi, g'ayritabiyy ravishda tilga kirib, "Mening nomim O'g'uzxon" deya o'ziga o'zi ism qo'ygani haqida hikoya qilinadi [12, 42-44]. Garchand, ilmiy asoslarga ega bo'lmasa-da, asrlar davomida xalq ichida saqlanib kelayotgan afsona va rivoyat, shuningdek, yuqorida tilga olgan manbalar zamirida tarixiy haqiqat mujassam bo'ladi.

Tarixdan bizgacha yetib kelgan ilk manba – bitiktosh matnlarida ham o'g'uzlar bilan bog'liq bir necha ma'lumotlar uchraydi. O'g'uz so'zi "oguz" va "ögüz" fonetik shakllarda ifodalagan bo'lib, bir o'rinda tamg'achi (*Oguz bilgä tamgači*), boshqa o'rinlarda etnonim (yar ögüz, yaşil ögüz, yinčü ögüz, tokuz oguz, säkiz oguz, üç oguz) hamda etnotoponim (ärtiš ögüz) sifatida jami – 70 martadan ortiq qo'llanilgan [2, 560-566]. Bunda ko'rinib turibdiki, Turk xoqonligi, so'ngra G'arbiy Turk hoqonligi tarkibida o'g'uzlar katta kuch sifatida siyosiy maydonda o'z o'rniga ega bo'lgan.

Manbalar tahlili. IX-XII asrlar o'g'uzlar katta siyosiy kuch sifatida o'zlarining qabilalar ittifoqini tuzganlar. Manbalarda bu haqida ko'plab ma'lumotlarni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston milliy ensiklopediyasida quyidagilarni o'qishimiz mumkin: o'g'uzlar (arab. va fors. g'uzlar, guzlar) – turkiyzabon qabilalarning 2 guruhi. 1) To'qquz o'g'uzlar qabila ittifoqi; VIII asr o'rxun-enisey yozuvlarida qayd etilgan. VII asr boshida Turk xoqonligi tarkibida paydo bo'lgan. 744-45-yillarda Turk xoqonligi tor-mor etilgach, hozirgi Mo'g'uliston hududida o'z davlatlarini tuzgan uyg'urlar qabila ittifoqida yetakchi mavqega ega bo'lishgan. 840-866-yillarda qirg'izlar tomonidan siqib chiqarilgan to'qquz o'g'uzlar hozirgi Sintszyan va Gansu viloyatiga ko'chib o'tishgan, Ganchjou davlati va Turfon davlatini (850-1250) barpo etganlar; bu erda to'qqiz o'g'uzlar nomi uyg'ur etnonimi bilan almashgan. 2) IX-XII asrlarda Orol va Kaspiy dengizi bo'ylaridagi ko'chmanchi va yarim o'troq qabilalar ittifoqi (g'uzlar); Yangikent o'g'uzlar yabg'usi qarorgohi bo'lgan. XI asrning 50-60-yillarida o'g'uzlarning bir qismi Yaroslav Mudriyning o'g'illari tomonidan tor-mor qilinib, Kiev knyazlarining vassallari sifatida Ros daryosi bo'ylariga joylashganlar; Sirdaryo o'g'uzlarining boshqa qismi X-XI asr boshida Buxoro va Xuroson erlari tomon siljiganlar. 1040-yildan so'ng saljuqiylar bosh bo'lgan o'g'uzlar G'arbiy Osiyo mamlakatlarini bosib olganlar. XI-XIII asrlarda o'g'uzlar etnonimi O'rta Osiyo va Eronda turkman, Yaqin Sharqda esa turk etnonimi bilan almashgan. O'g'uzlar turkman, ozarbayjon,

turk hamda gagauz va qoraqalpoqlar etnogenezida muhim rol o'ynagan. O'g'uzlarning epik asarlari (Kitobi dadam Qo'rqut, O'g'uznoma) saqlanib qolgan [15, 228]. Eng qadimgi yozma obidalardan biri bo'lgan tarixiy Ossuriya yozuvida ham o'g'uzlar haqida qaydlar saqlanib qolgan. Ma'lumki, 24 urug'dan iborat o'g'uz konfederatsiyasi (M.Koshg'ariy 22 tasini nommanom qayd etgan) 2 toifaga: icho'g'uz va disho'g'uzga ajratadi. Manbalarda Ash-Shira bitiglari deb ataladigan Ossuriya yozuvlarida iskip yoki skiflar bosqini haqida so'z yuritilar ekan ularni "ishgauzlar" deb ataydi. Bu atama ash-shiraliklar talaffuzida "icho'g'uz" bo'lgan degan qarashlar mavjud [13, 68]. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoning shimoliy va shimoliy-g'arbiy tomonlarida yashagan o'g'uzlarning mavqeyi baland bo'lgan. Ko'chmanchi hayot tarzidan tashqari, dehqonchilik bilan ham shug'ullangan. Somoniylar davrida ularning qo'shini tarkibida o'g'uz askarlarining o'ziga o'rni bo'lgan. Turkiylar orasida yuksak mavqega ega ekanligidan bo'lsa kerakki, Qoshg'ariy o'z asarida o'g'uzlarga katta ahamiyat qaratgan, qabila tarkibidagi kichik urug'lari haqida ahamiyatli ma'lumotlar qoldirgan.

Asosiy qism. O'g'uz – turklarning bir qabilasi. O'g'uzlar turkmanlardir. Ular yigirma ikki urug'dir: ularning har birining maxsus belgilari, mollariga xos tamg'alari bordir, urug'larni shu tamg'alariga qarab ayiradilar: qiniqlar, koyig'lar, boyondurlar, ipolar, solg'urlar, afshorlar, begtililar, bekduzlar, boyotlar, yozg'irlar, aymurlar, qorabuluqlar, olqabuluqlar, ig'dorlar, yudigerlar, tutirqalar, ulayundulug'lar, tukarlar, bijanaklar, juvoldorlar, jabnilar, jaruqlug'lar. Bu qabilalarni bilishga odamlarning ehtiyoji borligi uchun birma-bir izoh qildim. Tamg'alar ularning mollari va podalarining belgisidir. Mollari aralashib ketganida har bir qabila o'z molini shu tamg'alaridan ayirib oladi.

Bular asosiy qabilalardir. Ularning har birining aymoqlari bor. Qisqartirish uchun ularni yozmadim. Bu nomlar u qabilalarning eng qadimiy bobolarining ismidir [14, 89-91]. Bundan tashqari, M.Koshg'ariy "Devonu lug'ati-t-turk" asari lug'at qismida o'g'uzlarga xos lug'aviy birliklarni ham tahlil qilib bergan va ularni boshqa turkiy lahjalarga qiyoslab o'rgangan. Ayni shu davrda qabilalar uyushmasi sifatida birlashgan o'g'uzlarning o'ziga xos og'zaki badiiy ijodi shakllangan. Yuqorida keltirilgan havolada qayd etganimizdek, "Kitobi dada Qo'rqut" (yoki "Qurqut ota kitobi") va "O'g'uznoma" katta hajmli epik dostonlari shular jumlasidandir. Bugungi kungacha yetib kelgan bu dostonlarning turkiy xalqlar orasida o'nlab variantlari saqlanib qolgan. Shuningdek, bugungi kunda o'lik til sanaladigan o'g'uzlarning IX-XII asrlardan boshlab iste'molda bo'lgan tili hozir turkiy xalqlarning tillari singib, ularning shakllanishiga asos bo'lgan. Bu haqida milliy ensiklopediyada keltirilgan fikrlar asoslidir. O'g'uz tillari – turkiy tillar oilasining o'g'uz guruhiga mansub bir qancha o'lik hamda hozirgi iste'molda bo'lgan jonli tillar. Umuman, o'g'uz tillari 3 ta alohida-alohida guruhchalarga bo'linadi: 1) o'g'uz-turkman guruhchasiga X-XI asrlarda mavjud bo'lgan o'lik o'g'uz tili hamda hozirgi turkman tili va truxmen tili (Stavropol turkmanlarining tili) kiradi; 2) o'g'uz-bulg'or guruhchasi qadimiy bijanaklar va ularning tili hamda hozirgi gagauz tili va Bolqondagi bir qancha turkiy urug'lar (surg'uch, gajal, qaramanli, qizilbosh va boshqalar) tilini o'z ichiga oladi; 3) o'g'uz-saljuq guruhchasi esa qadimiy saljuq (X-XIV asrlar), eski usmonli (XIV-XIX asrlar) va eski ozarbayjon (XIV-XIX asrlar) singari o'lik tillarni hamda hozirgi ozarbayjon tili va turk tilini, shuningdek, qrim-tatar tilining janubiy lahjasini qamrab oladi [15, 227-228]. Shuningdek, o'zbek, bundan tashqari, qozoq, qirg'iz, ayniqsa, qoraqalpoq tillarida qadimgi o'g'uz tilining elementlari saqlanib qolgan hamda ulardan iste'molda foydalanadi. Saljuqiylar, xorazmshohlar, oqqo'yunli, qoraqo'yunli, safaviylar, usmoniylar kabi buyuk davlatlarni qurgan o'g'uzlar, nafaqat, turkiylar, balki dunyo tarixida ham o'ziga xos o'ziga xos o'rin tutadi. Shuning uchun ham o'g'uzlarning siyosiy, ijtimoiy va madaniy tarixini o'rganish doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Shu

kabi o'g'uz etnonimi va uning etimologiyasi tarixini o'rganish ham qiziqarli ilmiy faktlarga boy. Ishimizning keyingi qismida ushbu etnonim haqida fikr bildirib o'tamiz.

Tahlil va tadqiq. Kuzatishlarimizda o'g'uz nomi va uning ma'nolari haqida mulohaza yuritilgan ko'plab manbalarga duch keldik. Rus, turk va dunyoning boshqa tillarida, shuningdek, o'zbek tilida ham o'g'uz etnonimi bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. "O'g'uz" etnonimi manbalarda *o'g'uz*, *o'g'iz*, *o'g'ur*, *g'uz* shakllarida keltiriladi. Miloddan avvalgi II asrga oid Xitoy manbalarida "o-kut" nomi tilga olingan va u "o'g'uz" so'zining xitoycha talaffuz shaklidir. Turkiylar ularni "o'g'ur" ko'rinishida talaffuz qilgan. Bizga ma'lumki, qadimgi turkiy tilda "r" ning "z"ga aylanishi va "z" qo'shimcha sifatida ko'plik ma'nosini anglatgan. "O'g'uz" nomi xitoy tilida "qabila" mazmunini ifodalagan bo'lib, "turk-o'g'uzlar" deganda "turkiy qabilalar" ma'nosini tushunilgan. Yana bir manbaga ko'ra, "o'g'uz" so'zining asosida "o'q" so'zi bo'lib, shu o'zakdan hosil bo'lgan. "O'q" so'zi "qurol-aslaha, potron, yoy o'qi" kabi ma'nolaridan tashqari, "qabila" mazmunini ham ifodalagan va o'sha davrda xitoy tiliga ham "qabila" ko'rinishda tarjima qilingan. "O'n o'q" yoki "o'n o'g'iz" deyilganda etnik nom sifatida emas, balki "o'n qabila" yoki "turkiy qabilalar" sifatida tushunilgan. Yenisey daryosi irmog'i bo'lgan Barliq bo'yida hamda O'rxun vodiysida 6 urug'dan iborat uyushma, qabila tuzgan turkiy xalqlar "o'g'uzlar" deb atalgan. Birinchi yozma obida bo'lmish toshbitiklarni yaratgan ko'kturklar bilan ayni etnik guruhga bo'lib, VI-VII asrlarga ulardan ajralib chiqqan va o'g'uz nomini saqlab qolgan. Ularning bir necha etnik guruhlar mavjud bo'lib, asrlar davomida alohida-alohida yoki qabilalar uyushmasi yoki konfederatsiyasi shaklida jamoa bo'lib yashaganlar. Bu o'rinda "turk" so'zi etnik nom emas, siyosiy birlashmani ifodalagan. Musulmon manbalarida "to'qqiz o'g'uzlar"ni uyg'urlar deb qarash mavjud. Ammo ularning kelib chiqishi boshqa turkiy etnik guruhga borib taqaladi. Bu qarashda ham qaysidir ma'noda asos mavjud. "To'qqiz o'g'uz" deganda "o'g'uzlar" nazarda tutilganmi? Yoki "o'g'uz" etnik guruh nomi emas, balki "qabila" ma'nosida qo'llanilgan bo'lishi, to'qqiz turkiy urug' yoki qabilaning birlashishi uyg'urlarning shakllanishiga asos bo'lgan bo'lishi mumkin [5, 11-13].

Biz dastlab "o'g'uz" so'zini umumiy nom sifatida qabul qilib, uning ma'nosini "urug', qabila, qabila yoki urug'lar uyushmasi" deb belgilaganimiz uchun uning etimologiyasini shu ma'nodan kelib chiqqan holda qilishimiz kerak. Mavzu bo'yicha ko'plab tadqiqotlar e'lon qilgan turk olimi Ahmet Bijan Erjilasunning fikrlari qayd etib o'tish lozim. Olim "o'g'uz" etnonimi to'g'risida 1921-yilda vengriyalik olim G.Nemet tomonidan ilgari surilgan, turk olimi O'rxun tomonidan qo'llab-quvvatlangan nuqtayi nazar keng tarqalganini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bu etnonimni *o'q* + *z* sifatida tahlil qilish mumkin. "O'q" "qabila" ma'nosini bildiradi, + *z* esa ko'plik qo'shimchasidir. Huseyin Namiq O'rhun G.Németning fikrini keltirgandan so'ng, V.Tomsenga asoslanib, "O'q" so'zining "eng qadimgi davrlarda qabila" ma'nosiga kelganini, *biz* va *siz* olmoshlarida - *z* ko'plik ma'nosida ishlatilganligini qo'shimcha qiladi. "O'q" so'zining "qabila" ma'nosida qo'llanganligini dalillash uchun O'rhun Venadagi Milliy kutubxonada saqlanayotgan "Sayit Lo'qmon risolasi"dan bir latifani keltirib o'tadi: "Mahmud G'aznaviy o'zlariga tobe bo'lgan saljuqiylardan qachon qancha askar jo'natish mumkinligini so'raganida u shunday javob oldi: Agar bitta "o'q" yuborsangiz, biz o'n ming askar yuboramiz deydi [1, 14-19]". V.Tomsen o'zining Mo'g'iliston va Sibirda topilgan yozuvlar tadqiqiga bag'ishlangan va 1916-yilda nashr etilgan "Turcica" asarida "o'nta o'q" atamasini tushuntirayotganda "o'q" so'zi haqida o'z fikrlarini bildiradi. Unga ko'ra, o'qlarga bo'linish turklarning tashkilot shakli bo'lib, g'arbiy turklar 635-yilga kelib, ehtimol undan ham oldinroq, o'n qabilaga bo'lingan. "Har bir qabila boshlig'i xoqondan "o'q" olgan. Shuning uchun "O'n o'q" iborasi "O'n askar" yoki "O'n qo'shin" degan ma'noni anglatadi. Ular ikkita qanotga yoki har biri beshta "o'q" dan iborat ikkita bo'limga bo'lingan: biri o'ngdagi qanot (ya'ni g'arbiy, xitoylar "nou-che-pi" deb ataydi), ikkinchisi

esa chap qanot (ya'ni, xitoylar "tou-lou" deb ataydigan sharq) qanot edi. Vilgelm Tomsenning aytishicha, xuddi shu fikrda bo'lgan Melioranskiy ham turkmanlarda "o'q" ma'nosini bildiruvchi so'z "qabila" ma'nosida qo'llangan, Ramstedtdan olingan ma'lumotlarga ko'ra "o'q" ma'nosini bildiruvchi "sumun" so'zi mo'g'ul tilida 120-200 kishilik harbiy qismlar uchun ishlatiladi. Bunda o'q+uz — "o'qlar", ya'ni "qabilalar, qavmlar" degan ma'noni anglatishini bimalol qabul qilish mumkin [11, 14-19]. Shuningdek, Ahmet Bijan Erjilasun "o'g'uz" etnonimining R. Jeyms va H. Pelliotlar tomonida ilgari surilgan etimologik versiyalari o'zlari ta'kidlaganidek, ishonchli emasligini yozadi. Pol Pelliot ikkilanmasdan bo'lsa-da, "o'g'uz" va "o'g'ush" so'zlari o'rtasida bog'lanishni bog'lanish mavjudligini qayd etadi. Biroq, Hamilton "o'g'uz" va "o'g'ushni alohida hosila sifatida qabul qilmadi. Faqatgina "o'g'uz" so'zidagi "z" "o'g'ush"dagi "sh"ga o'zgarganligini da'vo qilgan. Unga ko'ra, "dastavval "to'qqiz qabila", ya'ni "to'qqiz o'g'ush"dan iborat konfederatsiya bo'lgan. Bir muncha vaqt o'tgach, bu idiomaga o'ziga xos ism sifatida qabul qilinganda, turkiy tilda umumiy uyg'unlik G. Nemetning "oq+uz" etimologiyasiga e'tirozlar bor, men bunga qo'shilaman, ikki unli orasidagi "q" tovushi o'sha davrda hali intonatsiyaga aylanmagan edi, deya fikrini izohlashga harakat qiladi. Shuningdek, Koshg'ariyning "Devon"ida keltirilgan "oyul" – "o'g'ul", ya'ni nasl, farzand so'zlaridan "o'g'uz" etnonimi kelib chiqqan bo'lishi mumkin, degan taxminiy mulohazalarni qayd etib o'tgan. Mahmud Koshg'ariyning asarida o'g'uz qabilalarining sonini 22 deb ko'rsatilgan. Boshqa turkiy qabilalardan farqli ravishda o'g'uz qabilalari nomma-nom sanalgan va hatto ularning tamg'alari, yerlashgan hududlari keltirilib o'tilgan. Bu haqida yuqorida ham ta'kidlab o'tgan edik. Sabab sifatida shuni keltirishimiz mumkinki, qadimdan o'g'uz qabilalarining nufuzi baland, o'zlarining siyosiy maydonlari bo'lgan. Bu tadqiq qilgan turk olimi A. Tashagil qadimgi Hun, Tabg'ach, Ko'kturk, Turgash, Uyg'ur va Qoraxoniylar davrlarining tashkil topishida o'g'uzlar muhim rol o'ynagani qadimgi turkiy davlatchiligida o'z o'rnini borligini ta'kidlaydi [10, 21]. "Devon"dagi 22 qabilaga ikki halach qabilasining qo'shilishi bilan bu raqam 24 taga yetganini bildirishidan ham Sayhun qabilalarida o'g'uz shakllanishi tugallangan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu shuni anglatadiki, bu ma'lumotlar XI asrning ikkinchi yarmida Koshg'ariy o'z asarini yozganida ham yangi holat edi.

Yuqorida o'g'uzlardan qolgan og'zaki epik doston "O'g'uzxon" dostoni bizgacha yetib kelgani va uning qozoq, turkman, turk tillarida variantlari borligi haqida ma'lumot bergan edik. "O'g'uz" etnonimining shunga bog'liq jihatlari ham mavjud. Dostonda O'g'uzning tug'ilganidan so'ng 3 kun davomida ona sutini iste'mol qilmagani, onasining tushida ayon bo'lib: qachonki Islomni qabul qilsang, farzanding sut emib boshlaydi deyishi, musulmonlikni qabul qilganidan so'ng birinchi sutni iste'mol qilishi keltirilgan. O'zbek leksikografik manbalarida "birinchi sut" "ag'iz" deyiladi va quyidagicha izohlanadi: *Og'iz suti* - homiladorlikning so'nggi haftalarida va tuqqandan keyingi dastlabki 2-3 kunda sut bezlarida ishlanib chiqadigan sut. Og'iz suti oddiy (yetilgan) sutdan yuksak darajada to'yimlili va yengil hazm bo'lishi, oqsil, tuzlari ko'pligi va qandi kamligi bilan farq qiladi. Og'iz sutidagi yog' va tuzlar tarkibi yangi tug'ilgan bola organizmidagi yog' va tuzlar tarkibiga o'xshaydi. Og'iz suti vitaminlarga boy, unda antitelolar ham ko'p. Bola yangi hayot sharoitiga moslashgan sari Og'iz sutining tarkibi oddiy sutnikiga o'xshab boradi. O'zbek shevalarida bu so'zning lahjalararo bir necha variantlari qo'llaniladi: *og'iz, ag'iz, uvuz, u:uz, o:uz, o':uz o'g'uz, og'uz* va boshqalar. O'zbek tilida, umuman, turkiy tillarda *g'* ning tovush almashish hodisasiga uchrab *v* shaklida talaffuz qilishi yoki yoki o'zidan oldingi tovushni cho'zishi orqali umuman talaffuz qilinmasligi mumkin (xuddi *o:uz, u:uz* kabi). "O'g'uz" etnonimi "birinchi sut" tushunchasini ifodalaydigan o'g'uz, (og'uz, ug'uz) so'zidan kelib chiqqan

bo'lishi, ya'ni, onasini emib boshlagandan so'ng (yoki keyinroq) shunday nomlangan bo'lishi mumkin. Bu bir gipoteza bo'lib, ko'plab tadqiqotlarda tahlil qilingan [9, 85].

Xulosa. Umuman, turkiy xalqlarning etnik shakllanishi va siyosiy tarixida o'g'uzlarning juda ahamiyatli roli mavjud. Ular Hun, Tabg'ach, Ko'kturk, Uyg'ur, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshoh, Usmoniylar kabi ulkan saltanatlarni qurishda va taraqqiyotida, turkiy, turkiy-islom madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynagan va jahon siyosiy, ijtimoiy va madaniy xaritasi hamda hayotida asrlar davomida ulkan ahamiyat kasb etgan. Etnonim sifatida "o'g'uz" so'zi *o'g'uz*, *o'g'ur*, *og'iz*, *g'uz*, *uvuz*, *o:uz* shakllariga ega bo'lib, uning ma'nosi "qabila", "urug'", "jamo'a", "ijtimoiy guruh"; "o'q", "o'qlar", "birinchi sut" kabi ma'nolarda talqin qilinadi. Bu nom miloddan avvalgi XII asrda bitilgan Ash-Shira bitigida ham qayd etilgan. Ayrim manbalar hatto "o'zbek" etnonimini ham "o'g'izbek" shaklidan kelib chiqqanligini ta'kislab keladilar [7, 2-3]. Bizningcha, "o'g'uz" so'zi "birinchi sut" tushunchasini anglatuvchi *ag'iz* (*uvuz*, *u:uz*, *o:uz*, *o'uz* *o'g'uz*) nomi bilan bog'liq bo'lib, etnonim shu so'z asosida shakllangan deyishga asoslarimiz mavjud.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ercilasun A.B. Oğuz adinin etimolojisi//Oğuzlar: Dilleri, Tarihleri ve Kültürleri. Uluslararası türkîyat araştırmaları sempozyumu bildirileri. Ankara, 2015. -S.14-19.
2. Hatice Şirin. Eski Türk yazıtları söz varlığı inceleme. Ankara. 2020, -B.660.
3. <http://www.khorezmiy.uz/uz/pages/view/295> (2023-yil, oktabr).
4. http://www.ozturkler.com/data_rus/russian.html (2023-yil, sentabr).
5. <https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/ozbek-atamasi-haqida.html> (2023-yil, sentabr).
6. <https://xn--80ad7bbk5c.xn--p1ai/ru/content/oguzy-i-ogury> (2023-yil, sentabr).
7. Pelliot, P. Uygur Yazısıyla Yazılmış Uğuz Han Destanı Üzerine (T'oung Pao, cilt XXVII -1930-'dan çeviren: Vedat Köken), Ankara: Türk Dil Kurumu.1995.
8. Taşağıl A. Oğuzların tarih sahnesine çıkışı hakkında//Oğuzlar: Dilleri, Tarihleri ve Kültürleri. Uluslararası türkîyat araştırmaları sempozyumu bildirileri. Ankara,2015. -S.21.
9. Tomsen V. Turcica: études concernant l'interprétation des inscriptions turques de la Mongolie et de la Sibérie. <https://archive.org/details/turcicathomsen>.
10. Улуғбек М. Тўрт улус тарихи. -Тошкент: Чўлпон, 1994. -Б. 42-44.
11. Мамадалиев Х. IX–XII асрларда ўғузлар. <https://e-tarix.uz/jahon-tarixi/219-oguzlar.html>.
12. Маҳмуд Кошғарий. Девони луғати-т турк. 1-том. -Тошкент: Фан. 1960, -Б.89-91..
13. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. -Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2-жилд. 2000, -Б.228.
14. Research and education, 2(10), 30–40. Scientific Journal Impact Factor 2023: 5.789 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10019387>
15. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 133–143. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4082>
16. Journal of New Century Innovations, 41(2), 67–73. <http://www.Newjournal.org/index.php/new/issue/view/264> Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/9654>
17. World Scientific Research Journal, <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/issue/view/89> 21(1), 102–108. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2865>
18. Til, ta'lim, tarjima. Xalqaro jurnal 2023-yil, 4-son, 4-jild, 71-78-betlar.<https://tadqiqot.uz/index.php/language/issue/view/601> <https://tadqiqot.uz/index.php/language/article/view/8629/8216>

19. South Asian Journal of Marketing Management Research (SAJMMR)
20. Uzbek language about linguistic nature of auxiliary words
21. Connective Words (Prepositions, Conjunctions and Particles) in “Divanu-Lugotit-Turk” (Dictionary of All Turkic Languages) of Mahmud Kashgari

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 2 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).